

## ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI TIBBIY-PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIFFERENTIAL DIAGNOSTIKA QILISH

**Mirsobitova Lobar Mirziyod qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU ning "maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim" fakulteti 303-guruh surdopedagogika yonalishi talabasi  
E-mail: lobarmirsobitova@gmail.com  
Ilmiy rahbar: **Rahmatova Shirin Nig'mon qizi**

**Annotation:** Maqolada ehitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tibbiy-pedagogik-psixologik defferensial diagnostika qilish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Diagnostika, defferensiya, profilaktika, intelekt, anamnez, motor va sensor alaliya, sharmanka.

**Аннотация:** В статье освещены вопросы медико-педагогически-психологической дифференциальной диагностики детей с отклонениями в обучении.

**Ключевые слова:** Диагностика, дефференция, профилактика, интеллект, анамнез, моторная и сенсорная алалия, шарманка.

**Abstract:** The article covers the issues of medical-pedagogical-psychological differential diagnosis of hearing-impaired children.

**Key words:** Diagnostics, deference, prevention, intelligence, anamnesis, motor and sensory alalia, embarrassment.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tibbiy-pedagogik-psixologik diagnostika qilish kursining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Alovida yordamga muhtoj bolalar va ayniqsa, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi haqidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirish;
2. Talaba yoshlar bilimini psixologik-pedagogik diagnostika tamoyillari, metodlari va metodikalari, ulami qo'llash yo'llari bilan qurollantirish;
3. Bolalami maxsus bolalar muassasalariga saralash bo'yicha tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya faoliyati mazmuni va tamoyillari, ular oldiga qo'yilgan asosiy maqsad haqidagi tasavvurlarini to'g'ri shakllantirish;
4. Defferensial diagnostikani amalga oshirishga tayyorlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalaming psixologik rivojlanishining umumiy va o'ziga xos qonuniyatları haqidagi bilimlar muhimligini asoslab berish;
5. Ma'lum yoshdag'i alovida yordamga muhtoj bolalaming nuqsonlarini hisobga olib, psixologik rivojlanishini o'rghanish uchun mo'ljallangan metodikalar jamlanmasini (tuzish) ajratib olish malakalarini shakllantirish;

6. Metodikalar materiallarini qo'llash texnikasida ko'rsatilganidek ulami mos holda qo'llash, tekshirishlar natijalarini tahlil qilish, xulosa va tavsiyalami shakllantirish malakalarini shakllantirish;

7. Alovida yordamga muhtoj bolalami psixologik-pedagogik o'rghanish metodikasi uchun materiallar tayyorlashning amaliy malakalarini shakllantirish.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tibbiy-pedagogik-psixologik diagnostika qilishdan maqsad ularni belgilari o'xshash bo'lgan boshqa turdag'i tashxislardan farq qilish, o'zlariga mos bo'lgan maxsus maktabgacha ta'lif tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida tabaqalashtirilgan holda ta'lif-tarbiya olishlarini ta'minlash hamda davlat tomonidan bepul koxlear implant jarrohlik amaliyoti otkazilishidan avval bemorni koxlear implant jarrohlik amaliyotiga saralash va tekshirish jarayonlaridan avval eshitishida muammolari bo'lgan bolalar tibbiy-pedagogik-psixologik komissiya ko'rigidan o'tkaziladi.

Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligining Shahar, viloyat tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya faoliyati Respublika Tashxis markazi tasdiqlagan "Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya Nizomi" asosida amalga oshiriladi. Komissiya aqliy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalami aniqlash, ulami maktabgacha ta'lif muassasaiariga, maxsus maktablarga, sog'liqni saqlash yoki ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshidagi davolov-profilaktika muassasalariga yuboradi, bir ta'lif muassasasidan boshqa ta'lif muassasasiga ko'chirish masalasini, shuningdek, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalaga ta'lif berish va tarbiyalash hamda davolash yuzasidan maslahatlar berish bilan shug'ullanadi. Komissiya a'zolari qatoriga Maktabgacha va maktab ta'lifi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot bo'limlari xodimlari va shifokorlar (bolalar psixonevrologi, otaloringolog, oftalmolog, xirurg, pediatr, teri tanosil kasalliklari shifokori), psixologlar va defektolog o'qituvchilar surdopedogologlar, oligofrenopedagoglar, logopedlar, tiflopedagoglar kiradi. Tibbiy-pedagogik-psixologik komissiyada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tashxis qo'yishdan avval shifokorlar bemorning umumiy salomatligini va boshqa og'ir somatik kasalliklari bor yoki yo'qligini, audiometrik eshituv holatini tekshirsa, psixolog bolaning ruhiy xolatini, surdopedagog esa birinchi navbatda bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslardan anamnestik ma'lumotlarni oladi, bolaning eshitish idrokini, nutqiy holatini, intelektini, bilish jarayonlarini, hissiy-irodaviy sohasini, shaxs sifatlarining rivojlanish darajasini, ikkilamchi nuqsonlari bor yoki yo'qligini, harakat sohasining rivojlanish darajasini va o'zini-o'zi baholash xususiyatlarni pedagogik jihatdan turli metodikalar orqali tekshiradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning go'daklik, ilk bolalik va maktabgacha yosh davridagi psixik rivojlanish darajasini tashhislash murakkab muammoligicha qolib kelayapti. Karlikni eshitishni qisman yo'qotganlikdan, intellektning pasayganligidan, nutqiy buzilishlardan farqlash qiyin. Bunda eshitishida nuqsoni bo'lgan, ayniqsa kar-

bolalar ko'p hollarda aqli zaif, zaif eshituvchilar esa sensor yoki motor alaliyali bolalar sifatida tavsiflanadi. Ilk davrdagi bolalarda psixik rivojlanishning ayrim buzilishlarini defferensiallashtirilgan tashhislashdagi qiyinchiliklar rivojlanishdagi turli og'ishlar o'xhash tashqi belgilarga ega (muloqotdagi qiyinchiliklar, nutqning yo'qligi) bo'lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Bolaning shaqildoqqa reaksiyasi uning ovozlami idrok etishi haqida erta fikr yuritish imkonini beradi. Keyinchalik bolaning jaranglovchi (ovoz chiqaruvchi) o'yinchoqlarga, radio va televizor ovoziga qiziqishiga e'tibor qaratishi lozim. Bolaning o'yinchoqlar va musiqa asboblari ovozini idrok etish qobiliyatini tekshirish kerak. Buning uchun turlicha ovoz chiqaradigan uchta asbob (garmon, hushtak, qo'ng'iroqcha) olib, bolani o'ziga qaratib turg'izish va uchala predmetdan navbat bilan ovoz chiqarish, keyin uni teskari qaratib turg'izib, shu asboblar ovozini idrok etish imkoniyatlarini tekshirish lozim. Turli ovoz chiqaruvchi o'yinchoqlardan chiqadigan tovush chastotalari diapazoni quyidagi jadvalda aks etgan:

Shaqildoq-5000Hz

Sharmanka-3000Hz

Naycha-3000Hz

Garmoshka-2000Hz

Hushtak-2500Hz

Charm-baroban-500Hz.

Eshituvni nutq orqali tekshirishda tekshiruvchi shivirlovchi va baland nutqdan foydalilanadi. Nutq orqali eshitishni tekshirish xar bir qulqoq uchun alovida amalga oshiriladi: tekshirilayotgan qulqoq ovoz kelayotgan tomonga o'giriladi, teskari tomon esa xo'llangan barmoq yoki nam paxta tamponi bilan berkitiladi. Nutqni idrok etishni tekshirishni yaqin masofadan boshlash kerak. Agar tekshiriluvchi aytيلayotgan barcha so'zلامи to‘g‘ri qaytarsa masofa borgan sari uzoqlashtiriladi, aytيلayotgan so'zلامинг ko‘pi ajratilmaydigan darajaga yetgunga qadar ushbu jarayon davom etadi. Idrok etishning chegarasi bo'lib, berilayotgan so'zلامинг 50% ajratiluvchi masofa olinadi. 6-7 metr masofadan shivirlovchi nutqni eshitish normal xisoblanadi. 1 metrdan kam masofadan shivirlagan nutqning idrok etilishi eshitishning pasayishidan, idrok etmaslik esa jiddiy zaif eshituvchilikdan va muloqot qilishning qiyinlashuvidan darak beradi. Agar shivirlovchi nutq idrok etilmasa, baland ovozda tekshirishga o'tiladi. Avval so'zlashuv balandligidagi nutqdan foydalilanadi, u shivirlashga nisbatan taxminan 10 marta uzoq bo‘lgan masofadan eshitiladi. Bunday xolatlarda so'zlashuv nutqidagi balandligidagi nutq ham farqlanmasa, kuchaytirilgan nutq (baqirishdan) foydalilanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. D.A.NurkeIdiyeva, M.U.Hamidova. RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR DIAGNOSTIKASI. Toshkent - 2016. B-129.

2. D. A. Nazarova Z.N, Mamarajabova. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). Darslik. "INNOVATSIYA-ZIYO" T- 2019.
3. Mo'minova L.R, Amirsaidova Sh.M, Mamarajabova Z.N, Xamidova M.U, Yakubjanova D.B, Djalolova Z.M, Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti. – T - 2013.
4. Pusatova S.M. Surdopsixologiya.O'quv-uslubiy majmua – T - 2021.
5. Xamidova M.U, Mamarajabova Z.N, Yakubjanova D.B. Surdopsixologiya .O'quv-uslubiy qo'llanma.- T - 2007.
6. Xamidova M.U, Maxsus pedagogika.O'quv qo'llanma - T: "Fan va texnologiya". 2018.

### Internet saytlari

1. vvvvvv.lex.uz – (O'zbekiston Respublikasi Davlat hujjatlari ma'lumotlari bazasi).
- 2 . vvvvvv.google.ru
- 3 . vvvvvv.ziyonet.uz
- 4 . vvvvvv.tdpu.uz
- 5 . vvvvvv.Kun.uz
- 6 . Ziyo.net internet tarmog'i.